
Sux tumanida fuqarolarga xorijga chiqish uchun biometrik pasportga talabnomalar rasmiylashtirilmoqda



Sux tumanida fuqarolarga xorijga chiqish uchun biometrik pasportga talabnomalar rasmiylashtirilmoqda

Viloyatimizning eng chekka tumani – Sux butun O‘zbekiston diqqat markazida desak, aslo mubolag‘a emas. Chunki bevosita Prezidentimiz tomonidan berilayotgan e‘tibor tufayli Sux bugun o‘lkan bunyodkorlik markaziga aylangan.

Aholi ijtimoiy muammo va kamchiliklarini o‘rganish va hal etish barobarida tumanda huquq-tartibot organlari vakillari tomonidan jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar va jinoyatchilikni oldini olish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Tezkor-kriminogen vaziyat barqarorligini ta‘minlash maqsadida hududga qo‘shimcha kuch va vositalarni jalb etgan holda jami 359 nafar (250 nafar ichki ishlar va 109 nafar Milliy gvardiya) xodimlarning xizmati yo‘lga qo‘yilgan.



Shuningdek, pasport-viza yo'nalishida maxsus jihozlangan «Gazel» rusumli avtotransportda tumanning birinchi sektor hududida joylashgan mahallalarida ko'chma «sayyor qabul» tashkil etilib, fuqarolarga xorijga chiqish uchun biometrik pasportga talabnomalar rasmiylashtirilmoqda. Mutasaddiyar bergan ma'lumotlarga ko'ra, Farg'ona viloyati IIB MvaFRB tomonidan 13.06.2020 yil kunidan boshlab fuqarolarga yengilik va qulaylik yaratish maqsadida Sux tumanida alohida jihozlangan «Gazel» avtomobili orhali xorijga chiqish pasportini rasmiylashtirish sayyor xizmati orqali hozirgi kunga qadar 870 nafar fuqarolarni xorijga chiqish biometrik pasporti uchun elektron talabnoma shakllantirildi. Pasport yunalishi buyicha 78 nafar fuqarolarning mummolari Farg'ona viloyati IIB MvaFRB xamda So'x tumani IIB MvaFRB

xodimlari tomonidan bartaraf etildi.



Ayni kunlarda pasport-viza yo'nalishi bo'yicha ish olib borayotgan mutaxassislar tumanning Devayron mahalla fuqarolar yig'ini hududida faoliyat yuritishmoqda. Oxirgi ma'lumotlarga ko'ra, Devayron mahalla fuqarolar yig'inida 47 nafar fuqaroga xorijga chiqish uchun biometrik pasportga talabnomalar rasmiylashtirilgan.

Sux tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-06-20 21:20:00